

SHARQ GO‘ZALI ROKSANA

Ganiyeva Dilnoza

Registon gid-ekskursovodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Iskandarning umr yo‘ldoshi Roksananing go‘zalligi, tarixiy kelib chiqishi hamda mavzuga doir ayrim tarixiy faktlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Iskandar, Ravshanak (Roksana), Makedoniya, oila, tarix.

Iskandar Zulqarnay(arab-ikki shohli). Taxminlarga qaraganda Iskandarning tojining ikki tarafi shoxsimon bo‘lgani uchun shunday aytilgan. Iskandar Zulqarnay eramizdan avvalgi 356-yilda tug‘ilgan. Uning otasi Makedoniya shohi-Filipp2, onasi Epir shohining qizi Olimpida edi. Filip2 Vizantiyani zapt etishga otlanayotgan paytda ilk bor og‘lini o‘rniga taxtga o‘tkazib ketadi. Eramizdan avvalgi 336-yilda otasining o‘limidan keyin esa Makedoniya hukmdori, deb e’lon qilinadi. Iskandarning uch nafar xotini va 360ta kanizakdan iborat harami bo‘lgan. Haramdan esa faqatgina ikkita ayol ya’ni Kampaspa va Barsina ajralib turgan. U shuning dek Amazonka qirolichasi Foletris hamda Hindiston malikasi Kleofis bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan.

Iskandarning nigohlari Sharqqa qaratilgan edi. U “Sharqiy zaminni” zabit etib, buyuk sultanatga asos solishni orzu qildi. Sharqqa tomon boshlangan 10 yillik Ellin yurishiga boshchilik qilganida makedoniyalik shoh atigi 22 yoshda edi. O‘n yillik yurishning uch yili Markaziy Osiyo hududlari, Sug‘diyona (Samarqand) va Baqtriyani zabit etish uchun sarflandi. Bugungi kunda nafaqat mutaxassislar, balki Iskandar Zulqaynar hayotiga qiziquvchi barcha qadimiy zamin - Samarqandga kelishga oshiqadi. Bu zamin jahongir Iskandarning Samarqand go‘zali Ravshanakka (lotin tilida Roksana) nisbatan qalbida uyg‘ongan muhabbatiga guvoh bo‘lgan. Ammo bu muhabbat fojiali, yorqin va juda qisqa davom etdi.

Sug‘diyonani zabit etishda grek-makedon qo‘smini yo‘lidagi birinchi to‘sinq “Sug‘diyona qoyasi” edi. Bu tog‘ ustida qurilgan qal‘a bo‘lib, Iskandar uchun uni zabit etish harbiy yurishining taqdirini hal qilardi. Iskandar qo‘sning qal‘adan turib otilayotgan kamon o‘qlari jiddiy ziyan yetkazardi. Qal‘ani hujum bilan zabit etishning umuman iloji yo‘q edi. Iskandar qo‘smini “Sug‘diyona qoyasiga” yaqinlashishi bilan kamon o‘qlari yomg‘iri yog‘ilardi. Iskandarning taslim bo‘lish talabiga sug‘diyonaliklar shunday javob qilishdi: “Ellinlar (Yunonlar) va makedonlar shohi, agar senda qanotli jangchilar bo‘lsa, qal‘ani zabit etishga harakat qilib ko‘r. Ammo senda unday jangchilar bo‘lmasa, yaxshisi ortinga qaytib ket. Sen hech qachon bu yergacha yetib kelolmaysan”.

Iskandar qoyaga chiqishda tajribasi bor eng kuchli jangchilarni saralab oldi va ularga yuksak mukofotlar va’da qilib, tepalikka chiqishni buyurdi. Tunda jasur jangchilar arqonlar yordamida qoyadan ko‘tarilishni boshladi. Ulardan 30 tasi qoyadan qulab halok bo‘lishdi, qolganlari tonggacha qal‘adagilardan ham yuqoriroqqa ko‘tarilib olishdi va yuqoridan turib qal‘aga hujum qilishdi. G‘aflatda qolgan qal‘adagilar himoyalanishdi, ammo oxir-oqibat qal‘a zabit etildi.

Ravshanak asira bo‘lishiga qaramasdan, Iskandar unga uylanishga qaror qildi.

Iskandarning harbiy yurishi davomida yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar doimo u bilan birga bo‘lishgan. Ulardan biri, yunon yozuvchisi Arrian shunday yozadi: “Oksiartning qizlaridan birining ismi Roksana (Ravshanak) bo‘lib, u juda go‘zal qiz edi. Jangda ishtirok etganlar uni “biz ko‘rgan ayollar ichida eng go‘zali” deb takrorlashardi. Aleksandr Roksanani bir ko‘rishda sevib qoldi. Unga bo‘lgan muhabbati tufayli, shoh unga kuch bilan erishishdan bosh tortdi va unga uylanishga qaror qildi”.

Iskandar va Ravshanak qanday ajoyib juftlik bo‘lishganini tasavvur qiling: qudratli jangchi, shoh va sarkarda hamda sohibjamol Samarqand go‘zali. Yunon rassomi Rotari tomonidan chizilgan “Aleksandr va Roksana to‘yi” nomli asar bugun dunyoga mashhur. Mazkur asar Plutarx hikoyasi asosida chizilgan bo‘lib, rassom Iskandar va Ravshanakning uchrashuvi lahzasini tasvirlagan. Oh-nola qilayotgan

xizmatkorlar atrofida yosh Ravshanak sharqona ibo, hayo bilan oshiqu beqaror sarkarda yonida turibdi. Biroq asarda rassom Sug‘diyona go‘zalini emas, balki yunon qizi go‘zalligini tasvirlagan. Sohibjamol Ravshanak “Sharqning asl atirguli” (Plutarx so‘zлari) bo‘lgan. Uning beqiyos go‘zalligi o‘z davrida tillarda doston bo‘lgan.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, Ravshanak Iskandarni sevganmi? Katta ehtimol bilan aytish mumkinki, u Iskandarning qudratidan cho‘chigan. Shu bilan birga, uni xo‘rlanishdan saqlab qolgani uchun ham Iskandardan minnatdor bo‘lgan.

Ularning unashtrish marosimi va to‘y sharqona urf-odatda o‘tdi. Bu holat yunon sarkardalari va amaldorlariga yoqmadi, albatta. Unashtrish marosimi soddagina qilib tashkil etildi - xanjar bilan bug‘doy uni ikkiga bo‘linib, kelin-kuyovga ularshildi. Bu odat hozirgi kungacha saqlanib kelinadi. Biroq nikoh to‘yi shohona o‘tkazildi. To‘y bo‘lgan vaqtida Ravshanakning yoshi 16 yoshlarda bo‘lgan. O‘sha kunning o‘zida Iskandar bilan uning 10 ming jangchisi mahalliy qizlarga uylanishdi. Ushbu to‘ydan so‘ng Iskandar tomonidan yunon-makedon qo‘shiniga jalb etilgan Sug‘diyona va Baqtriya jangchilarini qo‘shin safida teng huquqli maqomini olishdi. Ravshanakning oila a’zolari, aka-ukalari va opa-singillariga yuqori darajalar berildi.

Ular dastlab Ravshanak va nabirasi Aleksandr IV ni o‘z himoyasiga olgan Iskandarning onasi Olimpiadani qatl qildilar. Ravshanak va uning o‘g‘lini oshkora qatl etishdan cho‘chishdi. Chunki halq Iskandarning haqiqiy merosxo‘ri qatl etilishini kechirmasdi. Shu sababli ular Ravshanak va uning o‘g‘lini qadimiy yunon an’analariga ko‘ra, eng nomard va pastkash usul bilan - xufyona zaharlab o‘ldirishdi. Ularning jasadlarini barchadan yashirib dafn qilishdi. Shu tariqa Iskandar va Ravshanakning muhabbatiga yakun yasaldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.<https://rf-gk.ru/uz/moi-uzbekistan-roksana-biografiya-roksana-makedonskaya/>

2.<https://zarnews.uz/uz/post/buyuklar-muhabbati-makedoniyalik-iskandar-zulqaynar>